

# **“Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli konsert dasturi o‘tkazildi.**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlab Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetida 9-dekabr kuni “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli konsert dasturi o‘tkazildi. Konsert ulug‘ madhiyamiz sadolari bilan boshlandi. O‘tmishimiz, bugunimiz va albatta porloq kelajagimiz aks etgan video rolik barchani ta’sirlantirdi. Jonli ijroda talabalarimiz tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar va raqslar guldastasi zalga yig‘ilgan mehmonlarni ham raqsga chorladi.